

## O'ZBEKISTON RESPUBLIKASINING QONUNI

### O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTI, O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY KENGASHINING RAISI VA O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI VITSE-PREZIDENTINING SHA'NI VA QADR-QIMMATINI MUHOFAZA QILISH TO'G'RISIDA

#### *LexUZ sharhi*

Mazkur Qonun O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining 2003-yil 25-apreldagi 481-II-sonli "O'zbekiston Respublikasi Prezidenti faoliyatining asosiy kafolatlari to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonunini amalga kiritish haqida"gi qaroriga asosan o'z kuchini yo'qotgan.

#### *LexUZ sharhi*

O'zbekiston Respublikasining 1991-yil 30-sentabrdagi 364-XII-son "O'zbekiston SSR Konstitutsiyasi (asosiy qonuni)ga o'zgartishlar kiritish to'g'risida"gi Qonuniga muvofiq "O'zbekiston SSR" degan so'zlar "O'zbekiston Respublikasi" degan so'zlar bilan almashtirilgan.

O'zbekiston Respublikasining Boshlig'i sifatida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti yoki O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashi Raisi va O'zbekiston Respublikasi vitse-Prezidentining shani va qadr-qimmatiga putur yetkazilishiga yo'l qo'yib bo'lmasligini e'tirof etgan holda O'zbekiston Respublikasining Oliy Kengashi qaror qiladi:

#### **1-modda.**

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti yoki O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining Raisi va O'zbekiston Respublikasi vitse-Prezidentini oshkora haqoratlaganlik yoki ularga nisbatan tuhmat qilganlik —

uch ming so'mgacha miqdorda jarima solish yoki ikki yilgacha muddatga axloq tuzatish ishlariga hukm etish yoxud uch yilgacha muddatga ozodlikdan mahrum etish bilan jazolanadi.

Matbuotdan yoki boshqa ommaviy axborot vositalaridan foydalangan holda sodir etilgan xuddi shunday xatti-harakatlar —

ikki yilgacha muddatga axloq tuzatish ishlariga hukm etish yoxud olti yilgacha muddatga ozodlikdan mahrum etish bilan jazolanadi.

#### **2-modda.**

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti yoki O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining Raisi va O'zbekiston Respublikasi vitse-Prezidentini haqoratlovchi yoki ularning shaxsiga nisbatan tuhmatni o'z ichiga oluvchi materialni e'lon qilgan ommaviy axborot vositasiga sud qaroriga ko'ra yigirma besh ming so'mgacha miqdorda jarima solinadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti yoki O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining Raisi va O'zbekiston Respublikasi vitse-Prezidentini haqoratlovchi yoki ularga nisbatan tuhmatni o'z ichiga oluvchi materialni takroran tarqatgan ommaviy axborot vositasining faoliyati sud qaroriga ko'ra to'xtatilishi mumkin.

#### *Oldingi tahrirga qarang.*

(3-modda O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining 1995-yil 6-maydagi 73-I-son qaroriga asosan o'z kuchini yo'qotgan — Oliy Majlis Axborotnomasi, 1995-y., 6-son, 121-modda)

**O'zbekiston Respublikasining Prezidenti I. KARIMOV**

Toshkent sh.,  
1991-yil 15-fevral,  
220-XII-son

(O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining Axborotnomasi, 1991-y., 4-son, 73-modda; O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 1995-y., 6-son, 121-modda)